

TOPSHIRIQ 1. MAVZU: MIKROBIOLOGIYA FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI, RIVOJLANISH TARIXI

MIKROBIOLOGIK DIKTANT

Ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan kichik va tirik mavjudotlarning shakli, hajmi, o'sishi va rivojlanishini o'rganadigan fan deb ataladi. Bu termin tilidan olingan bo'lib –kichik, – hayot va – fan degan so'zlardan tashkil topgan. Tabiatda mikroorganizmlarni birinchi bo'lib o'zining marta kattalashtirib ko'rsatadigan mikroskopida kuzatgan. A. Levinguk mikrobiologiya fanining bo'limiga asos soldi. Ingliz olimi mikroorganizmlar moddalarning chirishi natijasida vujudga keladi degan fikrni quvvatlab kelganlar. Keyinchalik yilda fransiyalik olim tajribalar asosida “Tirik mavjudotlar o'z o'zidan vujudga kelmasligini” isbotlab berdi. S.N. Vinogradskiy (1856-1953) qishloq xo'jaligi bo'yicha tabiatda almashinish jarayonida qiluvchi bakteriyalarning faoliyati haqida ma'lumot berdi va shu bilan mikrobiologiyasining shakllanishiga asos soldi. Rus olimi 1892 yilda kasalligini suzgichdan o'tuvchi qo'zg'ata olishini isbotladi va bu yangilik keyinchalik faninig shakllanishiga asos bo'ldi.

Javoblar: 1. Mikrobiologiya 2. Yunon 3. Mikros 4. Bios 5. Logos 6. 140-300 7. A. Levinguk 8. Morfologiya 9. D. Nidxem 10. 1857 11. Lui Paster 12. Azotning 13. Nitrifikatsiya 14. Tuproq 15. D.I.Ivanovskiy 16. Tamaki bargi 17. Viruslar 18. Virusologiya

MAVZU YUZASIDAN TESTLAR:

1. Ushbu fanlarni o'rganadigan sohasi bilan juftlab yozing.

1	virusologiya	A	sodda jonivorlarni oʻrganadi		
2	Mikologiya	B	viruslar haqidagi fan		
3	immunologiya	C	zamburugʻlarni oʻrganadi		
4	protozoologiya	D	organizmda sodir buladigan himoya jarayonini oʻrganadi		
Javob:		1-B	2-C	3-D	4-A

2. Ushbu olimlarni qilgan ishlari bilan juftlab yozing.

1.	Lui Paster	A	chechak bilan kasallangan bemorlar bilan ko'pgina aloqada bo'lganida ham
----	------------	---	--

			kasallanmayotgan odamlarni aniqladi. Bu hol ko‘pincha sut sog‘uvchilarda kuzatildi.			
2.	Eduard Djenner	B	Mikroorganizmlarni o‘stirishda alohida koloniya va sof kulturani ajratib olishda zich oziqa muhitni amaliyotda qo‘lladi.			
3.	Danil Samoylovich	C	mikroorganizmlarni yuqori xarorat ta’sirida yo`qotish usulini ishlab chiqdi, bu usul sterilizatsiya deyiladi.			
4.	Robert Kox	D	tamaki bargining mozaik kasalligini o‘rganadi va bu kasallikni mayda agentlar keltirib chiqaradi degan fikrga keladi.			
5.	D. Y. Ivanovskiy	E	Moskvada toun (chuma) epidemiyasini alohida organizm keltirib chiqaradi degan xulosaga keldi.			
Javob:		1-C	2-A	3-E	4-B	5-D

3.Ushbu olimlarni qilgan ishlari bilan juftlab yozing.

1	Gans va Zahariy Yansenlar	A	Chechak, moxov va boshqa yuqumli kasalliklarning qo'zg'atuvchilar tirik mavjudot ekanligini, suv va havo orqali yuqishini ta'kidlaydi		
2	G.Galiley	B	Oldingi mikroskoplarni takomillashtirib, ikki linzali qavariq obyektivli mikroskopni yaratdi		
3	K.Drebbel	C	Birinchi soda mikroskopni ixtiro qildi		
4	Abu Ali Ibn Sino	D	Mayda narsalarni kattalashtirib korsatuvchi asbob yasadilar		
Javobi.		1-D	2-C	3-B	4-A

4.Ushbu yillarni o'ziga xos ma'lumotlari bilan juftlab yozing.

1	1837-yil	A	Lui Paster spirtli bijg'ish jarayonini biologik mohiyatini ochib berdi
2	1856-yil	B	Lui Paster sut kislotali bijg'ish jarayonini biologik

			mohiyatini ochib berdi			
3	1857-yil	C	T.Shvan, F.Kyutsing Germaniyada, Sh.Kanyar de la Tur Fransiyada bir-birlaridan bexabar ravishda, spirtli bijg'ish jarayoni mikroorganizmlar faoliyati tufayli yuzaga chiqishini aniqladilar			
4	1886-yil	D	Voronin dukkakli o'simliklarning tugunagida bakteriyalarning to'planishini bayon qildi			
Javoblar:		1-C	2-A	3-B	4-D	

5.Ushbu ma'lumotlarni asoschisi bilan juftlab to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?

1	Immunitetning nazariyasiga asos soldi	fagotsitar	A	X.Ya.Gobi	
2	Tuban o'simliklarni tadqiqotchilar maktabining asoschisi	o'rganuvchi	B	L.L.Gedenreyx	
3	Birinchi bo'lib petri deb nomlangan shisha idishidan foydalandi		C	G.Gelriel va Vilfart	
4	Azotobakteriyalar bilan o'simliklar o'rtasidagi hodisasini ochdilar	dukkakli simbioz	D	I.I.Mechnikov	
Javoblar:		1-D	2-A	3-B	4-C

6.O'zbekistonda biotexnologiya fanining rivojlanishiga hissa qo'shgan Holmurodov Asqar G'aniyevichning ilmiy faoliyatiga xos xususiyatlarni toping.

- a) 1950-yil Toshkent Farmatsevtika institutini tamomlagan
- b) 1980-yildan boshlab professor
- c) 1954-57 yillarda Samarqand Davlat Qishloq xo'jalik institutida Organik va biologik kimyo kafedrası mudiri
- d) Uning muallifligida 5 ta monografiya chop etilgan
- e) 1988-yil O'zR FA Prezidium bosh ilmiy kotibi
- m) 1990-yil O'zR FA Prezidium vitse-prezident

Javobi: b,e,m

7. O'zbekistonda biotexnologiya fanining rivojlanishiga hissa qo'shgan Ibragimov Ahmad Pochchayevichning ilmiy faoliyatiga xos xususiyatlarni toping.

- a) 1950-yil Toshkent Farmatsevtika institutini tamomlagan
- b) 1980-yildan boshlab professor
- c) 1954-57 yillarda Samarqand Davlat Qishloq xo'jalik institutida Organik va biologik kimyo kafedrası mudiri
- d) Uning muallifligida 5 ta monografiya chop etilgan
- e) 1988-yil O'zR FA Prezidium bosh ilmiy kotibi
- m) 1990-yil O'zR FA Prezidium vitse-prezident

Javobi: a,c,d

8. O'zbekistonda biotexnologiya fanining rivojlanishiga hissa qo'shgan Muzaffarov Axror Muzaffarovichning ilmiy faoliyatiga xos xususiyatlarni toping.

- a) 200 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifi
- b) 1980-yildan boshlab professor
- c) 1956-1960 yillarda O'zR FA Botanika institutining direktori
- d) Uning muallifligida 5 ta monografiya chop etilgan
- e) Algologiya, gidrobiologiya va suv o'tlari biotexnologiyasi sohalari bo'yicha faoliyat olib borgan
- m) 1990-yil O'zR FA Prezidium vitse-prezident

Javobi: a,c,e

9. Ushbu ma'lumotlar qaysi olimlarga tegishlilikini juftlab yozing.

1	Suyuq muhitda mikroorganizmlarning toza kulturasini olish	A	X. Gazen		
2	Qattiq jelatinli muhitda mikroorganizmlarning toza kulturasini olish	B	R. Kox		
3	Bakteriya kulturalari uchun agar-agarli muhitni	C	L. Paster		
4	Pivo ishlab chiqarishda achitqi zamburug'i kulturasidan birinchi bo'lib foydalangan	D	Gesse		
Javob:		1-C	2-B	3-D	4- A